



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 170 sahifa,
16-mart, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Katta guruh tarbiyalanuvchilarida kasb haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish metodikasini innovatsion ekotizim sharoitida takomillashtirish	18
Uralova Fotima Baxtiyor qizi	
Malakali sportchilarning kommunikativ qobiliyatlarini takomillashtirishda sotsiologik yondashuv (gandbolchilar misolida).....	23
G. A. Valiyeva	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida motor alaliyali bolalarni ruhiy va nutqiy rivojlantirish usullari	27
Suyunova Surayyo Ulash qizi	
Sog'lom bola ekotizimining asoslari: ovqatlanish, immunitet va rivojlanish	31
Israilova Xusnida Adilovna	
Mobil ilovalar yordamida mustaqil o'qishni rivojlantirish	37
Raximova Feruza Najmiddinova	
Biologiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	42
Dauekeeva Gulistan Orinbaevna	
Talabalarga ingliz tilidagi matnlarni kommunikativ metod yordamida o'qish texnikasini takomillashtirish usullari	46
Mo'minova Mahliyo Axrorjonovna	
Velosiped haydashning afzalliklari.....	49
Raxmonova Go'zal Bobir qizi	
Компетентностный подход как стратегическая основа модернизации образования и его реализация в преподавании русского языка как иностранного в Узбекистане	54
Мирзакбарова Севда Бахиддиновна	
Umumta'lim maktablarida texnologiya fani mashg'ulotlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari va metodlari.....	58
Ziyamova Gulbaxor Tulabayevna	
Типы аббревиации в русском и узбекском языках: сравнительно-типологический анализ.....	62
Рахмонова Бахтигул Пайзилловна	
Maktabgacha ta'limda nutqni rivojlantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi	65
Abidjonova Mushtariybonu Qobiljon qizi	
Tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etishda maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalarning o'zaro hamkorlik masalalari.....	71
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna, Jabborova Shaxina G'affor qizi	
Qadriyatli yondashuv asosida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish ..	76
G'aybullayev Quvonchbek G'olibovich	
Maktab o'quvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo'lishining psixologik tahlili	83
Ismoilova N. Z.	
Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni.....	87
Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich	
Funksional savodxonlikni rivojlantirishda o'qish savodxonligining o'rni va ahamiyati	91
Xatamova Munisa Mamadulla qizi	
Transformatsiyalash tizimi asosida o'quvchilarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi	95
Jurayeva Zulayxo Islomovna	
Zamonaviy boshqaruv nazariyalarida rahbar muloqoti (transformatsion, kommunikativ va ishtirokchi boshqaruv yondashuvlari asosida).....	102
Islamova Difuza Dilshodovna	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik kompetentlikni tabaqalashgan yondashuv asosida rivojlantirish mazmuni	107
Begmatova Nasiba Mengnarovna	
Bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini o'rgatish metodikasi	112
Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o'g'li	
Pre-Reading Activities to Enhance Foreign Language Reading Comprehension: Reading "The Adventures of Tom Sawyer" in 10–11 Grades	118
Djumaniyazova Zulfiya Kaliyevna	
Nutq aktlarini o'rgatishda autentik materiallardan foydalanishning metodik imkoniyatlari (filologik yo'nalish talabalari misolida)	122
Fayzulloeva Chevar G'ayrat qizi	
Yangi O'zbekistonda talaba-yoshlarni milliy yuksaltirishda jadid-marifatparvarlari ilgari surgan g'oyalarning o'rni va roli	125
Mamadaliyev Abduvoxid Maxsitaliyevich	
Gimnastikaning O'zbekistonga kirib kelish va rivojlanish tarixi	128
N. Q. Mamasidova	
Uglevodorodlar tarkibini aniqlashda massa ulushiga asoslangan reflektiv yondashuv (7-9-sinflar misolida)	131
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich, Smanova Zulayxo Asanaliyevna	
Screencasting materiallarini yaratish va ularni o'quv jarayonida qo'llash	134
Maxmudova Dilfuza Meliyevna, Ergashov Niyozxon Ilyozxon o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z shakllanishini psixolingvistik asoslari	137
Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi	
Maktabgacha ta'limdagi muammolar va yechimlar: o'zbekiston respublikasi tajribasi	140
N. Sh. Miryusupova	
Interaktiv kartografik resurslar va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishining didaktik, kognitiv hamda metodik asoslari	143
Olimova Aziza Abdullayevna	
Mentorlik tizimining tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari	147
Oxunova Dilnoza Qaxxorjonovna, Abdumannonova Durdonaxon Shuxratjon qizi	
Talabalarning psixologik holati va stress omillarining prokrastinatsiyaga ta'siri hamda mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash usullari	150
Razakov Farxod Kuvondikovich, Rajabov Hikmat Toshevich	
Talabalarni stulda o'tirgan qiyofachi portreti ranglavhasini ishlashga o'rgatish metodikasi	154
Sadatov Chori Xolmuradovich	
Organik kimyo fanini o'qitishda teskari ta'lim va texnologiyalarning ahamiyati	158
Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi, Babanazarova Ayzada Omirbaevna, Abdulkakimova Gulziyba Ziyatdinovna	
Duduqlanishni bartaraf etishda kompleks metodlarini qo'llashning samaradorligi	162
Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi	
Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini takomillashtirish	165
Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi	
Проектирование персонализированных образовательных сценариев в дошкольном образовании средствами генеративного искусственного интеллекта	168
Пак Диана Александровна	

QADRIYATLI YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

G'aybullayev Quvonchbek G'olibovich

BDU Pedagogika kafedrası birinchi bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayoni bilan bir qatorda ularni nazariy bilimlar hamda amaliy ko'nikmalar bilan qurollantirishning pedagogik ahamiyati yoritilgan. Talabalarni qadriyatli yondashuv asosida tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari, ularning pedagogik imkoniyatlari va amaliy samadorligi tahlil qilingan. Mazkur jarayon shaxsning har tomonlama kamol topishini ta'minlash hamda ijtimoiy-psixologik omillarni hisobga olgan holda tarbiya tizimini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, qiyosiy o'rganish va pedagogik kuzatuv metodlaridan foydalanilgan. Natijada talabalarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik mexanizmlarni rivojlantirish bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: qadriyatli yondashuv, ma'naviy-axloqiy tarbiya, talaba shaxsi, milliy qadriyatlar, tarbiyaviy mexanizmlar, pedagogik qadriyatlar.

Abstract: The article examines the pedagogical significance of developing students' spiritual and moral education in higher education institutions alongside equipping them with theoretical knowledge and practical skills. The ways of improving the mechanisms of educating students based on a value-oriented approach, as well as their pedagogical potential and practical effectiveness, are analyzed. This process is aimed at ensuring the comprehensive development of the individual and the systematic improvement of the educational process considering socio-psychological factors. The research employed methods of theoretical analysis, comparative study, and pedagogical observation. As a result, effective pedagogical mechanisms for developing students' spiritual and moral competencies are proposed.

Key words: value-oriented approach, spiritual and moral education, student personality, national values, educational mechanisms, pedagogical values.

Аннотация: В статье раскрывается педагогическое значение формирования духовно-нравственного воспитания студентов в высших образовательных учреждениях в сочетании с освоением ими теоретических знаний и практических навыков. Проанализированы пути совершенствования механизмов воспитания студентов на основе ценностного подхода, их педагогические возможности и практическая эффективность. Рассматриваемый процесс направлен на всестороннее развитие личности и системное совершенствование воспитательной деятельности с учётом социально-психологических факторов. В ходе исследования использованы методы теоретического анализа, сравнительного изучения и педагогического наблюдения. В результате предложены эффективные педагогические механизмы формирования духовно-нравственных компетенций у студентов.

Ключевые слова: ценностный подход, духовно-нравственное воспитание, личность студента, национальные ценности, воспитательные механизмы, педагогические ценности.

KIRISH


Bu globallashuv va texnika asrida yoshlarni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash jamiyatda yashayotgan har birimizning burchimizdir. Bu borada muhtaram Prezidentimiz ko'plab qonunlar qabul qilinishi hamda kuchli siyosat olib borilishini ta'minlamoqdalar. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonun va boshqa qonunosti hujjatlar qabul qilingan. Islohotlar talabi hamda global-lashuv davrida yoshlar tarbiyasi, ularning ongi va qalbi uchun kurash kuchayib borayotgan bir sharoitda talaba-larda mustahkam ma'naviy immunitetni shakllantirish o'ta muhimdir.

1 O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonun: <https://lex.uz/docs/-5013007>



Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Talabalarni nafaqat mutaxassis, balki yuqori axloqiy fazilatlar egasi sifatida tarbiyalash ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Tarbiyaviy ishlar talaba uchun shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar (oilalar, Vatan, insonparvarlik, halollik) orqali amalga oshirilishi kerak. Bu yondashuvda tarbiya "majburlash" emas, balki "e'tiqod va ong" darajasiga ko'tariladi. Bekorga ota-bobolarimiz "Qush uyasida ko'rganini qiladi", deb bejizga aytmaganlar. Avvalo, tarbiya oiladan boshlanadi, ya'ni oiladagi muhitning ta'siri juda katta. Biz yoshlarimizni qo'llab-quvvatlamasak, qiziqishlariga qarab yo'naltirmasak, oqibatda ularning kelajagi uchun poydevor yaratmagan bo'lamiz.

Buni quyidagi uslublar bilan amalga oshirish mumkin (1-rasm).



1-rasm: Talabalarda akmeologik yondashuvni shakllantirish usullari

Talabalar o'rtasida ma'naviy-axloqiy tarbiyani samarali tashkil etish uchun quyidagilarni joriy etish maqsadga muvofiq:

1. **"Qadriyatlar laboratoriyasi"ni tashkil etish**, talabalar tomonidan milliy an'analarni o'rganish va ommalashtirish;
2. **Axloqiy qoidalar kodeksi (Code of Ethics)ni joriy etish**: OTMlarda talabalar uchun o'zaro hurmat va akademik halollik kodeksini ishlab chiqish.

Davlatning ertangi kuni yoshlarning qay darajada bilimlari bilan bevosita bog'liq. Shu bois ta'lim tizimini rivojlantirish masalasiga hukumat darajasida e'tibor qaratilishi har bir davlatning muhim vazifasi hisoblanadi.

O'zbekistonda so'nggi yillar davomida Harakatlar strategiyasi va uning mantiqiy davomi sanalmish Taraqqiyot strategiyasi doirasida rivojlangan davlatlar kabi uzluksiz ta'lim tizimini muntazam takomillashtirib borish, sifatli ta'lim-tarbiya berish, malakali kadrlarni tayyorlash bo'yicha sezilarli islohotlar amalga oshirildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu islohotlar uchun davlat budjetidan ajratilgan xarajatlar so'nggi 6-yilda 4,3 baravarga oshirildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 2016-yildagi 5 211 tadan 2021-yilga kelib 19 316 taga, maktablar soni 9 719 tadan 10 289 taga yetkazildi. 11-yillik majburiy maktab ta'limi qayta tiklandi, maktab o'qituvchilarining ish yuklamasi maqbullashtirildi va majburiy mehnatga barham berildi. Ta'lim sohasi vakillarining oylik maoshi qariyb 4 baravarga oshirildi, OTMlar soni 70 tadan 191 taga yetkazildi, oliy ta'limdan keyingi ta'limning ikki pog'onali – tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (Doctor of Science) tizimi joriy etildi.

Ta'lim sohasidagi islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi 27,7 foizdan 67 foizga, maktablardagi malakali oliy ma'lumotli o'qituvchilar ulushi 81,8 foizdan 87,8 foizga, yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 9 foizdan 38 foizga yetkazildi.

Sohada islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida 2026-yilga qadar Taraqqiyot strategiyasi doirasida maktabgacha ta'limda qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan 80 foizga yetkazish, 7 mingdan ziyod yangi nodavlat MTTLarni tashkil etish, xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rnini yaratish, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bepul ovqatlanish bo'yicha yo'lga qo'yilgan ijobiy amaliyotni 2023–2024-o'quv yilidan qolgan barcha viloyatlar va Toshkent shahri maktablarida ham joriy etish ko'zda tutildi. Shuningdek, oliy ta'limda qamrov darajasini 50 foizga, nodavlat OTMLar sonini kamida 50 taga yetkazish belgilab olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida keltirilgan islohotlarni yanada mustahkamlash va bardavom bo'lishini ta'minlash, konstitutsiyaviy qonunchilikda yoshlarning uzluksiz ta'lim olishga bo'lgan imkoniyatlarini kengaytirish, ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishi kabi qo'shimchalar bilan to'ldirilmoqda.

Ta'lim sohasida davlatning alohida majburiyatlari sifatida imkoniyati cheklangan bolalarning sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan aniq mexanizmlar nazarda tutilgan bo'lib, ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanishi haqida ijtimoiy norma kiritilmoqda.

Yuqoridagi islohotlarni amalga oshirish uchun ta'lim berish sifatiga e'tibor qaratish va ushbu sohada ishlashning jozibadorligini doimiy ravishda oshirib borish zarur. Zero, millat va xalqning rivoji, uning intellektual salohiyatini oshirish o'qituvchilar faoliyatiga bog'liq. O'qituvchi ilm-fan sirlari, ma'naviy va madaniy merosni yoshlarga yetkazishda muhim bo'g'in hisoblanadi. Demak, o'qituvchilarga o'zlarining salohiyatini to'liq namoyon etishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ularni ijtimoiy, huquqiy va moddiy qo'llab-quvvatlash dardor.

Shu bois Konstitutsiyaga o'qituvchining jamiyatdagi maqomiga bag'ishlangan alohida modda kiritilmoqda. O'zbekistonda o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etilishi mustahkamlanmoqda. Davlatning o'qituvchilar sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishi, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi hamda kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi nazarda tutilmoqda.

O'z navbatida, mazkur yangilik mamlakatda faoliyat yuritayotgan 685 mingdan ortiq pedagogning ijtimoiy mavqeini mustahkamlash, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini kuchaytirish va kasbiy o'sishini ta'minlash imkoniyatini yaratadi.

Xulosa shuki, inson kapitali sifatini oshirmasdan turib, keyingi iqtisodiy o'sishni ta'minlash qiyin kechadi. Shu bois zarur kuch va resurslarni ta'lim sifatini oshirishga, malakali kadrlar tayyorlashga yo'naltirish nafaqat bugun, balki ertaning ham ustuvor vazifasiga aylanmoqda. Shu boisdan ham har bir mamlakat erkin va farovon jamiyat qurishga intilar ekan, bu yo'ldagi ulug'vor maqsad va vazifalarini, avvalo, o'z Konstitutsiyasida mustahkamlaydi. Bunga esa aslo shubha yo'q.

Qadriyatli yondashuv asosida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlari – bu ta'lim jarayoniga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni integratsiya qilish, tarbiyaviy tadbirlar, mustaqil ta'lim, mentorlik tizimi va interfaol metodlar orqali yoshlarda ijobiy fazilatlarini shakllantirish, milliy g'urur va axloqiy me'yorlarni ongiga singdirishga qaratilgan kompleks yondashuvdir. Amaliy va aqliy harakatga aylanadi hamda o'qituvchi–talaba o'rtasidagi munosabat hamkorlik xususiyatiga ega bo'ladi.

B. Jo'rayev hamkorlikning quyidagi shakllarini ko'rsatadi:

- pedagogik hamkorlikka kirishiladi;
- pedagogik o'qituvchi bilan talaba hamkorlikda bajaradigan mustaqil harakatlar amalga oshiriladi;
- o'qituvchi harakatni boshlab beradi, unga talaba faol jalb etiladi;
- o'qituvchidan ibrat olgan talaba namuna asosida harakat qiladi;
- o'qituvchi talabaga oraliq maqsad va unga erishish usullarini tanlashda yordam beradi;
- o'qituvchi talabaning o'zini o'zi boshqarish harakatlarida ishtirok etadi;
- talabalar tomonidan o'zini o'zi qo'zg'atuvchi, o'zini o'zi uyushtiruvchi refleksiv harakatlar amalga oshiriladi;
- amaliy va aqliy harakatga aylanadi hamda o'qituvchi–talaba o'rtasidagi hamkorlik xususiyatiga ega bo'ladi.

B. Jo'rayev hamkorlikning quyidagi shakllarini – o'qituvchi bilan talaba hamkorlikda bajaradigan mustaqil harakatlarni amalga oshirish orqali ko'rsatadi:

- o'qituvchi harakatni boshlab beradi, unga talaba faol jalb etiladi;
- o'qituvchidan ibrat olgan talaba namuna asosida harakat qiladi;



- o'qituvchi talabaga oraliq maqsad va unga erishish usullarini tanlashda yordam beradi hamda natijani nazorat qiladi;
- o'qituvchi talabaning o'zini o'zi boshqarish harakatlarida ishtirok etadi;
- talabalar tomonidan o'zini o'zi qo'zg'atuvchi, o'zini o'zi uyushtiruvchi refleksiv harakatlar amalga oshiriladi.

Ta'kidlash joizki, pedagogika fanlarini o'qitish metodikasi asoslari ta'limda milliy va umuminsoniy qadriyatlarining o'ziga xos xususiyatlarini, bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga, talabalar dunyoqarashining kengligini shakllantirishga, murakkab vaziyatlardan chiqib keta olishni, g'oyaviy-siyosiy hamda ma'naviy-axloqiy sifatlarni egallashni, ongillik, to'g'rilik, aniqlik, kasbiy texnikani egallashda zukkolik, zehnlilik va ijodkorlik xislatlarini tarkib toptiradi va imkoniyatlar eshigini ochadi.

Mazkur imkoniyatlardan ixtisoslikka oid fanlarni o'qitish bilan birga pedagogika faniga oid fanlarni o'qitishda foydalaniladigan qadriyatlarni tizimlashtirish, bu borada ma'lum mezonlarga tayanish, har bir o'quv fanini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda tarixiy-madaniy merosga aksiologik munosabatni qaror toptirish, pedagogik layoqatni shakllantirish kabi muhim vazifalar yo'lga qo'yildi. Buning natijasi sifatida talabalarning bilim saviyasi nazariy va amaliy jihatdan yuqorilab, yaxshi natijalarga erishilmoqda, yangi g'oyalar va ixtirolar bilan yanada samarali izlanishlar olib borilmoqda.

Raqamli ta'limga asoslangan texnologiyalarni ishlab chiqish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarblik kasb etadi. Bu haqida so'z yuritganda: "Aytish lozimki, biz ulug' bobolarimizning munosib davomchilari bo'ladigan yetuk insonlarni tarbiyalash masalasiga, afsuski, yetarlicha ahamiyat bermadik. Holbuki, intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik ekani, nodir talant egalarini tarbiyalab kamolga yetkazish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo'q", degan fikrlar ham bejiz emas.

Bu esa o'z navbatida o'qitishning pedagogik-psixologik tamoyillari, o'qituvchilarning pedagogik mahoratiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Ana shu jarayonning samaradorligi pedagogika fanlarini o'qitishda ta'limga munosabatni o'zgartiradi. Xullas, talabalarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishda bo'lajak kasbiga qiziqish hamda uni egallab olishida samaradorlikka erishish uchun quyidagilarga amal qilish zarur:

- ularning tabiatan o'ta ta'sirchanligi, irodasining mustahkam emasligi, o'zini tuta bilmasligi, ba'zi holatlarda manmanligini hisobga olib, shaxsiy qadr-qimmatini yerga urmay talabchanlikni oshirish;
- talabalarning kelib chiqishi va turli sharoitlarda voyaga yetganligini hisobga olib, ularga ma'naviy-axloqiy jihatdan samarali ta'sir etuvchi metod va vositalarni tanlash hamda individual yondashish maqsadga muvofiq.

Mazkur masalalarni e'tirof etgan holda ta'kidlash joizki, boshqa fanlardan ham ma'ruzalarning samaradorligini oshirishda quyidagi vaziyatlarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi:

- ma'ruzaning mazmuni, g'oyaviy-siyosiy yo'nalishi, ilmiyligi, ommabopligi, nazariya bilan amaliyotning birligi, empirik materiallar ko'lam, bayon qilish shakli va boshqalar;
- mavzuga oid materiallarning muammoli bayon qilinishi;
- ma'ruzaning dalillar bilan asoslanganligi, haqqoniyligi, lo'ndaligi;
- ma'ruzaning mutaxassislar kasbiy tayyorgarligi darajasiga bog'liqligi (muammomiz nuqtai nazaridan tayyorgarlik masalasi);
- ma'ruzada materialning tizimli bayon etilishi (rejasi, tartibi, siqiligi, umumlashganligi);
- ma'ruzani o'qish usuli (zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ko'rsatmaliligi, o'qituvchi nutqi, his-tuyg'ularga boyligi, bayonning sur'ati, mantiqiyliqi, muloqot madaniyati);
- o'qituvchining talabaga munosabati (e'tiboriligi, talabchanligi, samimiyligi, mehribonligi, odobliligi);
- ma'ruzachilik faoliyatini boshqarish (erkin, ishonch bilan, ilmiy asoslanish, ma'ruza matnidan uzoqlashmay bayon qilinishi) va boshqalar.

Qadriyatli yondashuv asosida talabalarimizni tarbiyalashning bir necha xil usullari mavjud bo'lib, ularning jamiyatimiz uchun xizmati ham kattadir. Ulardan biri – o'quv jarayonidagi integratsiyalar bo'lib, bu fan dasturida o'quvchi yoki talabalarga qadriyatlar mazmuni va mohiyatini tushuntirishga xizmat qiladi.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni rivojlantirish orqali qadriyatli yondashuvni talabalarda yuksaltirish mumkin. Bunda oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy kechalar, davra suhbatlari, turli xildagi uchrashuvlar, albatta, o'z samarasini beradi. Bu borada ulug' mutafakkir bobolarimiz Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy asarlarida ham o'z ifodasini topgan.

Qadriyatli yondashuv asosida talabalarda ma'naviy-axloqiy tafakkur va fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirishga yo'naltirilgan o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlash uchun qator chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Shunday ekan, qadriyatli yondashuv asosida talabalarda ma'naviy-axloqiy tafakkur va fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirishning muhim omili ularda ma'naviy jasoratni tarbiyalash ekanligi kelib chiqmoqda. Oliy ta'limda talabalarning fuqarolik dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan innovatsion faoliyat integrallashgan axborotlarni taqdim etish jarayoni hisoblanadi. Mazkur jarayonda shakllantirilgan sifatlar, birinchi navbatda, talabalarning ijtimoiy ongini rivojlantirishga xizmat qiladi va ularni siyosiy faollikka undaydi. Rivojlanish tendensiyalari va rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitlariga moslashganlik, intellektual, ijtimoiy barqarorlik, tashabbuskorlik va faol fuqarolik dunyoqarashi kabi sifatlar bugungi talaba yoshlarga xos bo'lishi lozim.

Oliy ta'limda yaratilgan erkin ijtimoiy muhit qadriyatli yondashuv asosida talabalarda tolerantlik tafakkuri va fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirishga xizmat qiladi. Erkinlik, so'z erkinligi, siyosiy munosabatlarda ishtirok etish erkinligi jamiyatdagi siyosiy va iqtisodiy holat haqidagi turli-tuman nuqtai nazarlarni bir-biri bilan yaqinlashtiradi. Buning natijasida talaba-yoshlar jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shunday ekan, bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-siyosiy faollik ularning huquqiy kompetensiyasini ham rivojlantiradi. Qadriyatli yondashuv asosida talabalarda ma'naviy-axloqiy tafakkur va fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mazmuni o'zini o'zi anglash, ijtimoiy-g'oyaviy yetuklik, vatanparvarlik, harbiy-vatanparvarlik, fuqarolik faolligi, ijtimoiy faollik, fuqarolik mas'uliyati, fidoyilik sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladigan bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishga yo'naltirilishi lozim. Qadriyatli yondashuv asosida talabalarda ma'naviy-axloqiy tafakkur va fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirish muhim sifatlar majmuasini ifodalaydi. Demak, talabalarning fuqarolik pozitsiyasi ularning axloqiy-siyosiy va ijtimoiy bilimlari oshishi orqali kechadi. OTM talabalari fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishlari uchun o'zlarida muayyan sifatning ham shakllanishiga erishishlari talab etiladi. Nazariy o'rganish, ijtimoiy faoliyatni kuzatish, oliy ta'lim mazmuni bilan tanishish orqali yetuk fuqaro bo'lib shakllanish, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish zarur. OTM talabalarida faol fuqarolik pozitsiyasining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillarga ta'lim-tarbiya jarayonidagi saviyasizlik va ota-onalarning mas'uliyatsizligini keltirish mumkin.

Bugungi ota-ona farzandi uchun namuna bo'la olmayotgani va hayotiy vaziyatlarda o'rnak bo'la oladigan darajada bilim va tajribaga ega emasligi asosiy omillardan biridir. Chunki yoshlarning dastlabki hayotiy ko'nikmalari va ijtimoiy munosabatlarga kirishishi oiladan, ota-onaning yo'naltirishi orqali kechadi. Ijtimoiy munosabatlarga yo'naltira olmagan, fuqarolik mas'uliyatini singdira olmagan ota-ona va saviyasiz ta'lim tizimi yoshlarda ijtimoiy faollikning shakllanishiga to'siq bo'luvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, oliy ta'lim tizimida ham erkinlikning yo'qligi va qolipga solingan axborotni singdirishga harakat qilish o'qituvchilarda ijtimoiy faollikni namoyon qilishga undovchi sifatlarini shakllantirmaydi.

Chunki ijtimoiy faollik ichki quvvatning namoyon bo'lishi bo'lib, bu erkinlikda namoyon bo'ladi. Shunday ekan, birinchi navbatda, talabalarga ilm olishda erkinlik, fikrlashda, tafakkur qilishda erkinlik, tanlovlarda erkinlikni berish, erkin ta'lim olish muhitini shakllantirish talab etiladi. So'nggi yillarda bu borada ko'plab ishlar amalga oshirildi va, umuman olganda, ta'limga yondashuv tubdan o'zgardi.

Qadriyatli yondashuv asosida talabalarda ma'naviy-axloqiy tafakkur va fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirishga yo'naltirilgan o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlash uchun qator chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Shunday ekan, qadriyatli yondashuv asosida talabalarda ma'naviy-axloqiy tafakkur va fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirishning muhim omili ularda ma'naviy jasoratni tarbiyalash ekanligi kelib chiqmoqda. Oliy ta'limda talabalarning fuqarolik dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan innovatsion faoliyat integrallashgan axborotlarni taqdim etish jarayoni hisoblanadi.

Mazkur jarayonda shakllantirilgan sifatlar, birinchi navbatda, talabalarning ijtimoiy ongini rivojlantirishga xizmat qiladi va ularni siyosiy faollikka undaydi. Rivojlanish tendensiyalari va rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitlariga moslashganlik, intellektual, ijtimoiy barqarorlik, tashabbuskorlik va faol fuqarolik dunyoqarashi kabi sifatlar bugungi talaba yoshlarga xos bo'lishi lozim. Rivojlantirishga xizmat qiladi va ularni siyosiy faollikka undaydi.

Rivojlanish tendensiyalari va rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitlariga moslashganlik, intellektual, ijtimoiy barqarorlik, tashabbuskorlik va faol fuqarolik dunyoqarashi kabi sifatlar bugungi talaba-yoshlarga xos bo'lishi lozim. Hozirgi davrda yoshlarni oila va unda saqlanib kelayotgan azaliy qadriyatlar ta'sirida axloqan tarbiyalash muammosi ko'plab nazariy va empirik izlanishlar predmetiga aylanmoqda. Zero, bunday yondashuv o'tmish allomalarning falsafiy-g'oyaviy qarashlari, oila va oilaviy tarbiya masalalariga bag'ishlangan o'g'itlari ma'nomohiyatiga mosdir. Sharqning buyuk mutafakkirlari sanalmish Ahmad al-Farg'oni, Mahmud az-Zamaxshariy, Abu Nasr al-Forobiy, Abu Bakr Muhammad ibn al-Abbos al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi o'nlab



allomalar qarashlarida bola tarbiyasida eng muhim ijtimoiy omil sifatida oila, ota-onalarning dunyoqarashlari, tarbiya uslublari va bunda jamiyat e'tirof etgan normalarning oila qadriyatlariga muvofiqligi tamoyili o'z ifodasini topgan.

Dunyoga dong'i ketgan qomusiy olimlarning asarlarida berilgan fikrlar zahirida ham insonning tabiat, atrof-muhit, jamiyat va inson faoliyati bilan bog'liq voqea-hodisalarning rivojlanib borishida qadriyatli yondashuv mohiyatiga e'tibor qaratilgan. A. Navoiy asarlarida sadoqat, to'g'ri so'zlik, ishonchni suiiste'mol qilmaslik va vafo tuyg'ularini o'z g'azallari mazmuniga singdirgan. Zahiriddin Muhammad Bobur o'z asarlarida Vatan sog'inchi, mas'uliyat, maqsad sari olg'a intilish kabi tushunchalarni ko'p uchratish mumkin. Shuningdek, bobokalonimiz Amir Temurning ma'naviy merosidan bizgacha yetib kelgan "Temur tuzuklari" asarining tub zamirini anglagan har bir voyaga yetayotgan o'quvchi shaxsi uchun ham pedagogik, ham psixologik tomondan fikrlar, tarbiyaga yo'naltirilgan g'oyalar va, albatta, bevosita sarkardaning o'z boshidan o'tkazgan voqealarning tarbiyaviy ahamiyati yoshlarning ma'naviyat va qadriyatni anglash haqidagi tushunchalarini shakllantirish va rivojlantirishga juda katta ta'sir qiladi.

Bobokalonimiz Mirzo Ulug'bek har doim ilm-fan va tinchlik tarafdori bo'lganlar. Ularning yulduzlar ilmiga bog'liq ko'plab asarlarida ham bevosita yoshlarning ilm olishi, ularga kitobni do'st qilish, har bir ilm oluvchi yoshidan qat'i nazar ham dunyoviy, ham, albatta, diniy bilimlarni egallashga yo'naltirishi lozimligi qayd etilgan. Xuddi shunday, farzandlarni qadriyatli yondashuv asosida tarbiyalash haqidagi qimmatli manbalar al-Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sino kabi bobolarimizdan qolgan meros asarlarda o'z aksini topgan. Ibn Sino amaliy ilmlar sifatida insonning xatti-harakatini tashkil etishga asos bo'ladigan ilmlarni tushungan. Kishilik jamiyati, muayyan bir mamlakat va xalqni idora qilish, o'zi yashab turgan uy xo'jaligini boshqarish, oilaviy munosabatlarni tartibga solish, shaxsning o'z-o'ziga munosabatini ifodalovchi amaliy bilimlar mutafakkirning ta'biricha ma'naviyat, odob-axloq haqidagi bilimlardir. Uning fikricha, obyektiv zaruriyat shaxsning bilim egallashga bo'lgan ehtiyojini vujudga keltiradi. Inson o'z ehtiyojlarini qondirish, vujudga kelgan muammolarni hal etishda aql-idroki, irodasi, bilimlariga tayanadi. Shaxsning bilimlari, iste'dodi, amaliy tajribasi asosida shakllangan ma'naviyat uning faoliyatini takomillashtiradi. Ibn Sino insonlar hamisha o'zini yomon nuqsonlardan ongli ravishda tiyib yurishi kerak, deb ta'kidlaydi va bunday salbiy illatlarni alohida ko'rsatib o'tadi: ochko'zlik, zulmkorlik, aldov, rashk, o'ch olish, tuhmat qilish kabilar. Mazkur ta'limot o'quvchilarning o'zini o'zi tarbiyalashida muhim pedagogik ahamiyatga ega. Yuqoridagi fikrlar zahirida mutafakkirlarning o'z asarlarida yoshlar tarbiyasiga e'tibor qaratish, ular vositasida o'quvchilarning obyektiv dunyoqarashlarini shakllantirish o'ziga xos ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan.

Shuni unutmash kerakki, uzluksiz pedagogik jarayonning asosini odob, ezgulik, rostgo'ylik, ishonch, hurmat ko'rsatish kabi ma'naviy-axloqiy tarbiya tashkil etadi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik jarayon ko'p qirrali bo'lib, ta'lim-tarbiyani o'zaro mutanosib tashkil etishni muvaffaqiyatli olib borishga tayyorlash samaradorligini oshirishga e'tiborni qat'iy talab etadi. Bugungi kunda oliy ta'limda talabalarning faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish orqali ularni turli g'oyaviy tahdidlardan himoyalash, diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik va ommaviy kommunikatsiya vositalari orqali tarqalayotgan ideologik tajovuzlarga qarshi turish kompetensiyasini ham mustahkamlash talab etilmoqda. Buning uchun "xalqimizga xos bag'rikenglik, kechirimlilik va olijanoblik fazilatlaridan kelib chiqib, bilib-bilmay jinoyatga qo'l urgan, to'g'ri yo'ldan adashgan, o'z qilimshidan chin dildan pushaymon bo'lgan yoshlarni kechirish va tinch hayotga qaytarishga yurtimizda katta e'tibor qaratilmoqda".

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday ekan, yoshlarni faol ijtimoiy hayotga yo'llash, ularni qo'llab-quvvatlash va tarbiyaviy ijtimoiy muhitni shakllantirish orqali ularni turli tahdidlardan himoyalash, faol fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash vazifalari ham yuzaga chiqmoqda. Oliy ta'limda talabalarning faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda huquqiy kompetensiyasi bilan birga g'oyaviy tarbiya ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bo'lajak kadrlarda ijtimoiy faollikni oshirish, ularda ijtimoiy mas'uliyatni, jamiyatga daxldorlik tuyg'usini shakllantirishda ijtimoiy ong shakllari bo'lgan fan, din, falsafa, san'at, badiiy adabiyot, axloq va huquq g'oyaviy tarbiyaning manbalari va asosi hisoblanadi. Shu bois talabalarni kuchli mutaxassis, raqobatbardosh kadr bo'lish bilan birga faol fuqaro, erkin, ozod va keng fikrli inson qilib tarbiyalash, dunyoqarashi va tafakkuri teran kadr sifatida yetishtirish davr talabidir va bugungi islohotlarning bosh maqsadidir. Shuningdek, olib borilayotgan ta'lim va tarbiya jarayonlari talabalarning dunyoqarashini kengaytirish, ularning ongini dunyoviy, ilmiy bilimlar bilan boyitishga yo'naltirilgani bois, bu ularning faol hayotiy pozitsiyaga ega bo'lishlariga ko'maklashadi. Fuqarolik tarbiyasi, fuqarolik dunyoqarashini shakllantirish barkamol avlodni tarbiyalashning markaziy masalasi hisoblanadi. Fuqarolik fidoyilik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning eng yuqori nuqtasi sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham fidoyi yoshlarni tarbiyalash uchun dastlab ularda fuqarolik tuyg'usini qaror toptirish lozim.

Fuqarolik pozitsiyasi yuksak intellektual kompetensiya, keng dunyoqarash va teran tafakkur, huquqiy va siyosiy saviya hamda bilim asosida shakllanadi. Shuningdek, fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishdagi muhim omil sifatida so'z erkinligi qadrlanadigan, qonun ustuvor bo'lgan va fikrlar xilma-xilligi hurmat qilinadigan ijtimoiy muhit ham zarur. Qadriyatli yondashuv asosida talabalarda ma'naviy tafakkur va fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirish har bir talabada o'z xalqining tarixi, ma'naviy qadriyatlari, Vatanning imkoniyatlari va istiqbolini bilish va qadrlash, undan faxrlanish, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligi uchun daxldorlikni his qilishi va anglashi bilan chambarchas bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – B. 386.
2. Mirziyoyev Sh. M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – B. 440.
3. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2016.
4. Akramova A. A. Bo'lajak o'qituvchilarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning o'rni. Zamonaviy ta'lim. 2017. № 4. – B. 56.
5. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2010.
6. Sultonova G. A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
7. Muslimov N. A., Usmonboeva M. H., Sayfurov D. M., To'raev A. B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent, 2015.
8. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-tom. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017.
9. Akramova A. A. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning tashkiliy-metodik asoslarini takomillashtirish. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2016. – B. 78.
10. Yuldasheva M. M. Qadriyatli yondashuv asosida talabalarda ma'naviy tafakkur va fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirish texnologiyasi.
11. Kodjaspirova G. M. Pedagogika (darslik). – Pedagogik kompetentliklar tizimi bo'yicha umumiy ma'lumotlar.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.